

ONA TILIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNING SHAKLLARI VA ULARNING
MAZMUNI

Jo'rayeva Saodat

Osiyo xalqaro universiteti

Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti 1-BT-22guruh talabasi.

Fattullayeva Mahzuna

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14549088>

***Annotatsiya.** Sinfdan tashqari ishlar óquv dasturi bilan chambarchas bog'liq bólib, unda nazarda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Ona tilidan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadlarni kòzlaydi.*

Ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, óquvchilar bu jarayonda qòshimcha bilim malaka va kònikmalarga ega bólishadi. Tarbiyaviy ahamiyati óquvchilarning nutq odobini shakllantirishda, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat kòrsatish kabi ijobiy xislatlarini boyitib boradi.

***Kalit sózlar:** ona tili, ta'limiy, tarbiyaviy, bilimlar, tògaraklar, uchrashuvlar, ertaliklar.*

Ona tilidan sinfdan tashqari ishlar óquv dasturi bilan chambarchas bog'liq bólib unda kòzda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Boshlanğich sinflarda ona tilidan sinfdan tashqari ish deyilganda óquvchilarning óqituvchi rahbarligida darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan dastur bilan bog'liq bólgan materiallar asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashğulotlar tushiniladi. Sinfdan tashqari ishlarni 2 turini farqlash mumkin. 1-turiga rejadagi materiallarni ózlashtirishda orqada qoladigan bolalar bilan ishlash tushunilsa, 2-turi esa ona tilini òrganishga qiziquvchi bolalar bilan ótkaziladigan mashğulotlar tushuniladi. Ona tili sinfdan tashqari ishlarning asosiy turi bólib, u óquvchilar bilan doimiy ish olib boradi. Tògarakka a'zo bólish ixtiyoriy bólib, mashğulotlar ishtirok etish majburiydir. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda quyidagi óquv materiallaridan foydalaniladi: tògarak faoliyatiga mos keladigan kitoblar, daftarlar, modellastirish materiallari va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Ona tili tògaraklari haftada 1-2marta òtkaziladi va bunda tògarak a'zolari soni 15-20 tadan oshmasligi belgilanadi. Boshlanğich sinflarda ona tili sinfdan tashqari ishlarning quyidagi bosqchlari mavjud:

1. Tayyorlov bosqichi. Bu 1-sinfning savod órgatishdavriga tógri keladi. Unga darsning 17-20 daqiqasi ajratiladi.

2. Boshlanîch bosqich. Bu 1-sinfning 2-yarim yilligiga tgri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi.

3.Asosiy bosqich. Bu bosqich 2-4 sinflatga tgri keladi. Bu davrda quvchilarning qish malakasi mustahkamlanadi.

Bunda quvchilarning Ona tilidan sinfdan tashqari tkaziladigan tgaraklar quyidagicha nomlanadi: "Ona tilim- jonu dilim", "zbek tili davlat tili"va hokazolaqiganlari baholanadi.

Quyida tkaziladigan mashlulotlarimizdan 3-4 sinflar doirasida misollar keltiramiz.

1.To'garakka nom qo'yish. O'quvchilarga to'garakning maqsad va vazifalari bilan tanishtirish.

To'garak bizga nima beradi? mavzusida suhbat.

2. O'quvchilardan til odobi, so'zlash madaniyati haqida bilganlarini so'rash.

3. Til haqidagi maqollar so'rab ularning mazmunini yoritib sharhlab berish.

To'garak mashg'ulotlari dars mashg'ulotlarini takrorlamaydi, balki uni to'ldiradiva takomillashtiradi. Ona tili to'garak mashg'ulotlari o'tkaziladigan xona zamonaviy texnika vositalari, mashhur tilshunos olimlarning portretlari, o'quvchilarning diktant, bayon va insho yozishlari uchun esdalikkabilar bilan jihozlangan bo'lishi, o'quv metodik majmuani o'zida mujassamlashtirishi lozim. Ona tili to'garak mashg'ulotlari o'tkaziladigan xona ish qog'ozlaridan namunalar bo'lsa, o'quvchilar uchun ancha muncha foydali bo'ladi.

Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarga savol-javob kechalari, uchrashuvlar, o'tkir zehinlilar mushoirasi, so'zlar dunyosiga sayohat, ko'rik-tanlovlar o'tkazish kabilar kiradi. Savol-jvob kechalarida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishadi. Kechaga tayyorgarlik1-1.5oy oldin boshlanadi. O'quvchilar maktabda tashkil etilgan savollar qutisiga o'zlarini qiziqtirgan savollarni yozib tashlaydilar. Bu savollar mavzu jihatdan har xil bo'lishi mumkin. Masalan: "Lotin alifbosiga o'tish bizga nima berdi"? "Nechanchi yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi"?

Muayyan vaqt o'tgach, to'garak a'zolari savollarni yig'ib, ularga javob tayyorlaydilar va kechani tashkil qiladilar. Uchrashuvlar hamjuda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unda ona tili darsliklari mualliflari, mashhur tilshunos olimlar, hukumatmukofotiga sazovor bo'lgan ona tili o'qituvchilari taklif etilishi mumkin. Ayniqsa, bular orasida maktabning sobiq talabalari bo'lsa ularni ham taklif etish juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega shartlari bo'yicha O'tkir zehnlilar mushoirasining mavzusi ham 1-1,5oy oldin e'lon qilinadi. Bellashadigan guruhlar o'zlariga sardor tanlaydilar. Mushoira shartlari asosida har bir guruh mustaqil tayyorgarlik ko'radilar.

Mushoira ona tilining muayyan bir bo'limi yokibir necha kichik mavzularni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan,"Orfografiya","Sodda gap turlari" kabi.

Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarning yuqorida tilga olingan barcha shakllarini tashkil etishda to'garak a'zolari faol ishtirok etadilar.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning ona tili faniga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning bo'sh vaqtlarini qiziqarli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish vositasidir.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning asosiy vazifalari:

- o'quvchilarning turli faoliyat turlariga qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini aniqlash;

- har bir bolaning maktabdan tashqari mashg'ulotlarning tanlangan yo'nalishi bo'yicha rivojlanishi uchun sharoit yaratish;

- o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari tizimini shakllantirish;

- bolalarning ijodiy faoliyati tajribasini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- talabalar tomonidan olingan bilim, ko'nikmalarni amalga oshirish uchun sharoit yaratish;

- maktab o'quvchilari va jamiyat o'rtasidagi aloqa doirasini kengaytirish;

- o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar bilan tuzatish ishlari.

Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarga savol-javob kechalari, uchrashuvlar, o'tkir zehnlarning mushoirasi, so'zlar olamiga sayohat, ko'rik-tanlovlar o'tkazish, olimpiadalar, konferensiyalar, albom va devoriy gazeta chiqarish kabilarni kiritish mumkin. Savol-javob kechasida o'quvchilarning o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishadi. Kechaga tayyorgarlik 1-1,5 oy oldin boshlanadi.

O'quvchilar maktabda tashkil etilgan qutiga o'zlarini qiziqtirgan savollarni yozib tashlaydilar. Bu savollar mavzu jihatidan har xil bo'lishi mumkin. Masalan, «O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi yozuvlari qanaqa bo'lgan?», «Yozuv qanday kelib chiqqan?», «Lotin alifbosiga o'tish bizga nima beradi?», «Ko'zi ojizlar qanday yozadi va o'qiydi?», «Az-Zamaxshariy kim bo'lgan?» kabi. Muayyan vaqt o'tgach, to'garak a'zolari savollarni yig'ib, ularga javob tayyorlaydilar va kechani tashkil etadilar. Uchrashuvlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unga ona tili darsliklarining mualliflari, mashhur tilshunos olimlar, hukumat mukofotiga sazovor bo'lgan ona tili o'qituvchilari taklif etilishi mumkin. O'tkir zehnlilar mushoirasining mavzusi ham 1-1,5 oy oldin e'lon qilinadi. Bellashadigan guruhlar o'zlariga sardor belgilaydilar. Mushoira shartlari asosida har bir guruh mustaqil tayyorgarlik ko'radi. Mushoira odatda guruhlarning o'zaro tabrigi bilan boshlanadi. Asosiy qism savol-javobdan iborat. Savollar o'qituvchi yoki bellashayotgan guruhlar tomonidan tuzilishi mumkin. Hakamlar tabrik so'zi va har bir savol-javobga tegishli ball qo'yishadi hamda ular e'lon qilib boriladi. Mushoira ona tilining muayyan bir bo'limi yoki bir necha kichik mavzularni o'z ichiga olishi mumkin.

Masalan, «Orfografiya», «To'g'ri talaffuz me'yori», «So'zning shakl va ma'no munosabatlari», «So'zlamining o'zaro birikishi», «Sodda gap turlari», «Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplamining o'zaro birikish usullari» kabi.

So'zlar olamiga sayohat. Bu tadbir o'quvchilarning so'z zaxirasini oshirishga qaratilgan tadbir. O'quvchilar darsdan keying bo'sh vaqtlarida so'zlamining etimologiyasi, ularning leksik ma'nosi olamiga sayohat qilishadi.

Tilimizdagi so'zlar juda katta xazina bo'lganligi sababli, o'qituvchi qaysi uyadagi so'zlar (har bir tadbirida taxminan 50-60 so'z) yuzasidan o'quvchilarning tayyorgarlik ko'rishlari lozimligini 10-15 kun oldin ma'lum qiladi va qanday manbalardan foydalanish lozimligini uqtiradi.

Ko'rik-tanlovlar ham sinfdan tashqari ishlarning muhim turlaridan biridir. Bu tadbir vaqt-vaqti bilan o'tkaziladigan tadbir bo'lib, uni tashkil etishda o'quvchilarning yoshi, bilim saviyasi hisobga olinadi. Chunonchi, agar boshlang'ich sinflarda «Kimning xati chiroyli?», «Matn mazmunini kim tez va to'g'ri tushunadi?» kabi mavzular tanlansa, 5—6-sinflarda «Namunali mashq daftari», «Badiiy (yoki ilmiy) mavzuda yozilgan eng yaxshi insho>>», «Eng yaxshi yozilgan maqola» singarilar tanlanishi mumkin. 8-9-sinflarda esa erkin mavzuda yozilgan insholar, ramziy insholar bo'yicha shunday tanlovlar o'tkazilsa bo'ladi.

Olimpiadalar ham sinfdan tashqari ishlarning bir turi bo'lib, unga ishtirok etish ixtiyoriydir.

Bu tadbirga kuch sinashishni ixtiyor etgan barcha o'quvchilar ishtirok etishlari mumkin.

Olimpiada g'oliblari maktab ma'muriyatining buyrug'i bilan rag'batlantiriladi. Ona tili olimpiadalari yilda bir marta o'tkaziladigan tadbir. Bu tadbiring birinchi bosqichi maktabda, ikkinchi bosqichi tuman (shahar)da, uchinchi bosqichi viloyatda va to'rtinchi bosqichi Respublikada o'tkaziladi. Konferensiyalar ancha murakkab tadbirlardan biri bo'lib, u asosan, 8-9-va undan keyingi sinflarda o'tkaziladi. Bunda ham asosiy bosh mavzu oldindan o'quvchilarga ma'lum qilinadi; bu bosh mavzu kichik mavzularga ajratilib, uning har biri bo'yicha kimlar tayyorgarlik ko'rishi lozimligi belgilanadi. Bitta mavzu bo'yicha 3-4 nafar o'quvchi tayyorgarlik ko'rgan bo'lsa, ulardan biri asosiy ma'ruzachi, qolganlari qo'shimcha ma'ruzachilar sifatida ishtirok etadilar. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarning yuqorida tilga olingan barcha shakllarini tashkil etishda to'garak a'zolari faol ishtirok etadilar.

REFERENCES

1. Akbarovna, I. S. (2024). PROFESSIONAL SKILLS OF THE TEACHER. WORLD OF SCIENCE, 7(8), 1-7.

2. Akbarovna, I. S. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA Qiyosiy PEDAGOGIKANING AHAMIYATI. WORLD OF SCIENCE, 7(8), 8-13.
3. Akbarovna, I. S. (2024). SPORT O 'YINLARI REJASI ORQALI SOG 'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLAR. MASTERS, 2(5), 91-97.
4. Akbarovna, I. S. (2024). A HEALTHY FAMILY ENVIRONMENT AS A SOCIAL FACTOR IN PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY LIFE. WORLD OF SCIENCE, 7(5), 529-535.
5. Akbarovna, I. S. (2024). ЗДОРОВАЯ СЕМЕЙНАЯ СРЕДА КАК СОЦИАЛЬНЫЙ ФАКТОР ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ. MASTERS, 2(5), 98-104.
6. Ikromova, S. (2024). FORMS AND CONTENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 933-939.
7. Akbarovna, I. S. (2024). MASTERING THE BASICS OF PEDAGOGICAL SKILLS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 882-887.
8. Akbarovna, I. S. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ ЧЕРЕЗ ПЛАН СПОРТИВНЫХ ИГР. WORLD OF SCIENCE, 7(5), 521-528.
9. Akbarovna, I. S. (2024). SPORTCHILAR FAOLIYATINI O'RGANISHNING UMUMIY PSIXOLOGIK USULLARI. WORLD OF SCIENCE, 7(5), 536-543.
10. Akbarovna, I. S. (2024). PROCEDURE FOR CREATING PSYCHOLOGICAL TEST PROGRAMS. PEDAGOG, 7(6), 153-159.
11. Икромова, С. (2024). ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 925-932.
12. Икромова, С. А. (2024). ОСВОЕНИЕ ОСНОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 894-899.
13. Икромова, С. А. (2024). ВАЖНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 906-911.
14. Икромова, С. А. (2023). O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET HOSIL BO'LISHINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI: Ikromova Sitara Akbarovna Osiyo xalqaro universiteti assistenti. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (10), 333-336.

15. Ikromova, S., & Ziyodullayeva, M. (2024). DEVIANT XULQ-ATVOR. *Modern Science and Research*, 3(11), 576-579.
16. Икромова, С., & Джумаева, Ф. (2024). ОРИЕНТИРЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И В ДРУГИХ СТРАНАХ. *Modern Science and Research*, 3(11), 540-546.
17. Икромова, С. А. (2024). ОСНОВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ. *PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA ILMIY JURNALI*, 2(4), 47-53.
18. Fatullayeva, M., & Raxmatova, G. (2024). TANLOVLARNING MAZMUNI VA ULARNI TASHKIL QILISH USULLARI. *Modern Science and Research*, 3(11), 551-556.
19. [O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLAR O'QITISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI](#) M.M Fattullayeva - PEDAGOG, 2024
20. [O 'QUVCHILARNI BADIY USLUBDAGI MATNLARNI YARATISHGA O'RGATISH](#) M.M Fattullayeva - PEDAGOG, 2024